O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:
№ BD-60230100-1.19
2021- yil "28" avgust

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori;
R.I.Xalmuradov
2021- yil "28" avgust

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	230000- Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

Fan dasturi SamDU O'zbek tilshunosligi kafedrasining 2021-yil 7-may dagi 15 -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti o'quv-uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 22-may dagi 8- sonli bayonnoma).

Fakultet o'quv-uslubiy kengash raisi: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti Ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 26-may dagi 8- sonli bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengash raisi **prof. A.Pardayev**

Kelishildi:
SamDU o'quv ishlari bo'yicha propektor **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi *O‘DM 2003*	O‘quv yili 2022-2023	Semestr 4	ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi	**Ta’lim tili** O‘zbek		**Haftadagi dars soatlari** 6	
1.	**Fan nomi** **«O‘zbek dialektologiyasi»**	**Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta’lim (soat)**	**Mustaqil ta’lim (soat)**
		60	90	

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga o‘zbek shevalarining eng muhim xususiyatlari, ularning murakkab dialektal tarkibi, leksik, fonetik va grammatik tabiati haqida batafsil tushuncha va ma’lumot berish, zarur shroitlarda ulardan amalda foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari: sheva lug‘atlarini tuzish, transkripsiya prinsiplarini o‘zlashtirib olishi va milliy tilning asosi bo‘lgan shevalar, ularning dialektal xususiyatlari hamda o‘zbek shevalarining muhim fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini tushuntirish, shevalarni tasniflashdagi yetakchi tamoyillarni o‘rganish va sheva matnlarini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, fan va ta’lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni ta’lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

«O‘zbek dialektologiyasi» fani tarkibiga quyidagilar kiradi:

1-mavzu. Kirish. «O‘zbek dialektologiyasi» fanining maqsad va vazifalari (2 soat)

“O‘zbek dialektologiyasi” fanining “O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi bo‘yicha pedagoglar tayyorlashdagi ahamiyati. “O‘zbek dialektologiyasi” kursining turlari. O‘zbek shevalari milliy tilning quyi bosqichi, o‘zbek tilining asosi ekanligi. Tilshunoslikda sheva, dialekt, lahja terminlari defenetsiyasi. O‘zbek tilining dialectal tarkibi va ular murakkabligining ijtimoiy va tarixiy interpretatsiyasi.

2-3-mavzu. Transkripsiya(4 soat)

Transkripsiya turlari. Fonetik va fonologik transkripsiya. Xalqaro transkripsiya. Transliteratsiya. Milliy transkripsiya. Turkiy tillar va lahjalarni o‘rganishda qo‘llaniladigan transkripsion belgilar. O‘zbek shevalarini o‘rganishda qo‘llaniladigan transkripsiyalar. Lotin alifbosiga asoslangan yangi o‘zbek yozuvidagi transkripsiyaga xos xususiyatlar

	4-5-mavzu. O‘zbek shevalari tasnifi (4 soat) O‘zbek shevalarini tasniflashda yetakchi tamoyillar: hududiy, etnik, etnogenetik, lisoniy, lisoniy-hududiy (lingvoareal). O‘zbek shevalari tasniflari. Ularning yutuq va kamchiliklari. **6-7-mavzu. O‘zbek shevalarining o‘rganilishi (4 soat)** O‘zbek shevalarining tarqalish hududlari. Turkiy tillar va lahjalarni o‘rganishda M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarining ahamiyati. Abu Rayhon Beruniyning shevashunoslikka qo‘shgan hissasi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning va Ashurali Zohiriylarning o‘zbek shevalari xususidagi muhim fikrlari. O‘zbek xalq shevalarini o‘rganishda rus turkologlarining ishtiroki. O‘zbek shevashunosligida yaratilgan dialektologik tadqiqotlar. **8-mavzu. O‘zbek shevalari fonetikasi va fonologik qonuniyatlar (2 soat)** O‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlari. Shevalar vokalizmi va konsonantizmi. O‘zbek shevalaridagi va o‘zbek adabiy tilidagi unlilar munosabati. O‘zbek shevalaridagi undoshlar tasnifining o‘ziga xos jihatlari. Singarmonizm qonuni va uning turlari. Umlaut. O‘zbek shevalaridagi nutq tovushlarining kombinator va pozitsion o‘zgarishlari va turlari. Fonetik jarayonlar. **9-mavzu. O‘zbek shevalari leksikasi va leksikografiyasi (2 soat)** O‘zbek shevalari leksikasi tushunchasiga bo‘lgan qarashlar. ning adabiy tildan farq qiladigan ba’zi harakterli lug‘aviy xususiyatlari. Shevalarning tarixiy jihatdan leksik qatlamlari. Shevalarning o‘z so‘zlari. Shevalararo leksik moslik (variant) masalasi. Sheva so‘zlari va jargonlar. O‘zbek shevalari leksikografiyasi masalalari. **10-mavzu. O‘zbek shevalari morfologiyasi va so‘z yasalishi (2 soat)** O‘zbek shevalarining morfologik xususiyatlari. O‘zbek adabiy tilidagi va o‘zbek shevalaridagi turlanishning farqi. Grammatik son, kelishik, egalik, shaxs-son, mayl, zamon kategoriyalariga xos shakllar. Fe’lning funksional shakllarining shevalardagi o‘ziga xosliklari. So‘z yasalishidagi xususiyatlar talqini. **11-mavzu. O‘zbek shevalari sintaksisi (2 soat)** Dialektal sintaksis. Shevalarda so‘z birikmalari, izofali konsturksiyalar, to‘liq va to‘liqsiz gaplar, so‘z-gaplar. Dialektal sodda va qo‘shma gaplar. Dialektal matn hamda unga xos xususiyatlar tavsifi.

12-mavzu. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining muhim xususiyatlari (2 soat)

Qarluq-chigil-uyg’ur lahjasiga birlashtiruvchi dialekt va shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari.

13-14-mavzu. Qipchoq, o‘g’uz lahjasining muhim xususiyatlari (4 soat)

Qipchoq, o‘g’uz lahjasiga birlashtiruvchi dialekt va shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari.

15-16-mavzu. Areal lingvistika (4 soat)

Areal lingvistikaning til va shevalarni o‘rganish usullari. Izoglassa tushunchasi. Dialektal xarita va atlas, uning yaratilish tarixi va ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasida areal lingvistikaning vujudga kelishi va rivojlantirilishi.

17-mavzu. Adabiy til va dialekt munosabati (2 soat)

Sheva, milliy til va adabiy til. Badiiy asarlardagi dialektezmlar va ularning turlari. O‘zbek dialektologiyasi fanining til va adabiyot o‘quvchilari uchun ahamiyati. Dialeektal xato tushunchasi, ularni bartaraf etish yo‘llari. Dialektezmlarning adabiy tilga singish jarayoni. Avtonomiya va giteranomiya. Bir xalq tilining turli davlat hududlarida alohida – mustaqil rivojlanishi, yozuvdagi farqlar, adabiy me’yorlarning o‘ziga xosligi.

III. Amaliy (yoki <u>seminar, laboratoriya</u>) mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Transkripsiya. Shevaga oid matnlarni transkripsiyada yozish va o‘qish.
2. Fonetik tahlil. Shevaga oid matnlarning fonetik xususiyatlari.
3. Fonetik tahlil. O‘zbek shevalarida uchraydigan fonetik qonuniyatlar ustida ishlash.
4. Leksik tahlil. Shevaga xos matnlarning leksik xususiyatlari.
5. Shevaga xos so‘zlarni mavzuiy guruhlarga bo‘lib o‘rganish.
6. Morfologik tahlil. Shevalarda turlanish.
7. Morfologik tahlil. O‘zbek shevalarida fe’lning o‘ziga xos xususiyatlari.

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Sheva, dialekt, lahjalaning xususiyatlari, ularni o‘rganish metodlari.
2. Dialektlarni tadqiq qilish usullari.
3. O‘zbek shevalarining o‘rganilish tarixi.
4. O‘zbek adabiy tilining tayanch shevalari.

	5. Shevalar lug‘ati. Dialektal leksikografiya masalasi. 6. Areal lingvistika. **IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar** Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. O‘zbek xalq shevalarining o‘rganilish tarixi. 2. Shevalarni tadqiq qilish usullari. 3. O‘zbek shevalari tasnifi. 4. Professor Ye.Polivanov tasnifi. 5. Professor V.V.Reshetov tasnifi. 6. Transkripsiya va uning turlari. 7. Transkripsiyani o‘zlashtirish va sheva materiallarini matnlar shaklida yozish. 8. O‘zbek shevalarida undosh va unlilar tasnfi. 9. Shevalarda fonetik hodisalar. 10. Shevaga oid matnlarning leksik xususiyatlari. 11. Shevaga xos so‘zlarning mavzuiy guruhlari. 12. Ma’lum bir sheva lug‘atini tayyorlash. 13. Shevalararo moslik(variant) masalasi. 14. Shevaga oid matnlarning morfologik xususiyatlari. 15. Shevalarda fe’lning kategorial va nokategorial shakllari. 16. Shevaga oid matnlarning sintaktik xususiyatlari. 17. O‘zbek tilining qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga xos xususiyatlar. 18. O‘zbek tilining qipchoq lahjasiga xos xususiyatlar. 19. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasiga xos xususiyatlar. 20. Areal lingvistikaning o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni. 21. Adabiy til va dialect muammosi.
3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • Sheva lug‘atlarini tuzish, transkripsiya prinsiplarini o‘zlashtirib olishi va milliy tilning asosi bo‘lgan shevalar, ularning dialektal xususiyatlari hamda o‘zbek shevalarining muhim fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini farqlay olishi va tushuntirib bera olish darajasida **bilishi va tasavvuraga ega bo‘lishi;** • turli metodlarda, ayniqsa, qiyosiy metod bilan shevalarni o‘rganish, muayyan bir sheva haqida to‘la ma’lumot berish, sheva matnlarini transkripsiyada yoza olish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;** • muayyan bir sheva haqida to‘liq ma’lumot berish va shevalarni muayyan guruhlarga kiritish **malakasiga ega bo‘lishi kerak.**
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**

	• ma‘ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko‘rgazmali qurollar; • kompyuter; • muammoli ta’lim; • qiyosiy tahlil. • turli xil nostandart testlar
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** **1.** Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent: O‘qituvchi. 1996. **2.** Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Toshkent: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004. 3. Enazarov T., Karimjonova V.A., Enazarova M.S., Mahmadiyev Sh.S., Rixsiyeva K.G‘. O‘zbek shevashunosligi – Toshkent: Universitet, 2012. – B.184. 4. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: Navro‘z, 2016. – B. 150. **Qo‘shimcha adabiyotlar:** 1. Бегалиев М.Қ. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеваси лексикаси.- Тошкент: Иқтисод-Молия, 2007. 2. Dialectology. J.K. Chambers and Peter Trudgill. Cambridge University Press. – 2004.Mahmudov Q. Qadimgi Turkiston. –T., 2004. 3. Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Тошкент.1991. 4. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1997. 5. Ибрагимова З.Ю. Қорақалпоғистон ўзбек шевалари қишлоқ хўжалиги лексикасининг лингвогеографик тадқиқи. НДА. 2009. 6. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2005. 7. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. – Тошкент: Мухаррир, 2011. –Б. 466. 8. Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. – Қарши: Насаф, 2000. 9. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги.- Тошкент: Ўқитувчи,1996. 10. Решетов В. В. Ўзбек диалектларини монографик ўрганиш //

	ЎТА.1960. 1-сони. 11. Решетов В. В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси.- Тошкент: Ўқитувчи, 1962. 12. Решетов В. В. О диалектной основе узбекского литературного языка // Вопросы языкознания. I, -Москва , 1955. 13. Решетов Б.Б. Ўзбек шеваларининг классификацияси // ЎТА. 1966. 14. Шоабдураҳмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962 15. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 1-қисм.- Тошкент: Фан, 1957. 16. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм.- Тошкент: Фан, 1960. 17. Ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкет: Фан, 1984. 18. Ўзбек шевалари лексикаси.- Тошкнт: Фан,1966. 19. Ўзбек шевалари лексикаси.- Тошкнт: Фан,1991. **20.** Ўзбек диалектологияси. ЎУМ, ЎзМУ 2011. Ўзбек филологияси факултети кутубхонаси.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy кengashining 2021-yil _____dagi ___-son bayonnomasi bilan ma’qullangan**.**
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar**: Sh.Mahmadiyev – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. R.Suvonova – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
9.	**Taqrizchilar:** A. G‘afforov – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (ichki) M.Abdiyev – Amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (tashqi)